



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 5 - iyul

191-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 20-iyundagi 384-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagি PF-79-sonli Farmoni hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 20-iyundagi 384-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining ““O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagи PF-79-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida” 2023-yil 20-iyundagi 384-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha Yangihayot tumanining “Yo‘l xaritasi” 1-ilova muvofiq tasdiqlansin;

Yangihayot tumani hokimining ayrim qarorlariga 2-ilova muvofiq o‘zgarish va qo‘sishchalar kiritilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Kamilov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Tadjiev), tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi (U.Maxamadaliev):

Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi va tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi faoliyati Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan muvofiqlashtirib borilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Kamilov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi

X.Inogamov



Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 5-iyuldag'i
191-14-220-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini
transformatsiya qilish bo'yicha Yangihayot tumanining
“Yo'l xaritasi”**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasini takomillashtirish					
1.	Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.	I va II darajali "Zamonaviy maktab" va "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti" maqomini olgan maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarini mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan bir martalik rag'batlantirishni tashkil etish.	Har yil yakunida	-	Tuman hokimining o'rinosarlari (X.Tashpulatov, M.Kamilov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Tadjiev)
II. Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish					

2.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish.	“Raqamli Toshkent” elektron platformasi tajribasidan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish choralarini ko‘rish. Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga mikrohududdagi har bir mahalla, ko‘cha, uy va xonadonni biriktirishda ta’lim muassasasining quvvati (o‘quvchi o‘rnii) va navbatlilik koeffitsiyentini inobatga olish.	2024-yil yanvardan boshlab	-	Tuman tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Tadjiev), Davlat kadastrlar palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tumani filiali (I.Saidrasulev)
----	---	--	----------------------------	---	--

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 5-iyuldag'i
191-14-220-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Yangihayot tumani hokimining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotgan
ayrim qarorlari**

RO'YXATI

1. Yangihayot tumani hokimining "Toshkent shahar hokimining 2022-yil 23-iyundagi 588-14-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 282-14-0-Q/22-sonli qarorida:

- a) nomidagi, muqaddimasidagi, 4-bandi va 5-bandidagi "Xalq ta'lumi" so'zлari "Maktabgacha va maktab ta'lumi" so'zлari bilan almashtirilsin;
- b) 5-bandida:

beshinchi, oltinchi, ettinchi va to'qqizinchi xatboshilaridagi "Xalq ta'lumi" so'zлari "Maktab ta'lumi" so'zlariga almashtirilsin;

2. Yangihayot tumani hokimining "Toshkent shahar hokimining 2022-yil 16-fevraldag'i 136-14-0-Q/22-son qarori ijrosi to'g'risida"gi 2022-yil 22-fevraldag'i 80-14-0-Q/22-sonli qarorida:

- a) nomidagi, muqaddimasidagi, 3-bandi va 5-bandidagi "Xalq ta'lumi" so'zлari "Maktabgacha va maktab ta'lumi" so'zлari bilan almashtirilsin;
- b) 4-bandida:

birinchi, uchinchi, oltinchi xatboshilaridagi "Xalq ta'lumi" so'zлari "Maktab ta'lumi" so'zlariga almashtirilsin;

3. 2-ilova bilan tasdiqlangan Xalq ta'lumi tizimini isloh qilish bo'yicha milliy kengashning joriy faoliyatini ta'minlash uchun tashkil etilgan tuman kengashi shtabi tomonidan joylarda amalga oshiriladigan ishlar rejasining 1, 2, 3-bandlari (pozitsiyasi) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

T/R	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul xodimlar
I. Yangihayot tumani rahbarlarining maktablarni rivojlantirish bo'yicha mas'uliyatini oshirish				
1.	Maktabgacha va maktab ta'lumi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman tashkil etish.	1. Maktabgacha va maktab ta'lumi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman va kengashini tashkil etish. 2. Kengashning birinchi yig'ilishini o'tkazish hamda kengash vazifalarini belgilash	2022 yil 15 fevral	Tuman hokimining o'rinnbosari (M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta'lumi (Sh.Tadjiyev)

2.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman kesimida yillik dasturni ishlab chiqish va tasdiqlash.	<p>1. Umumiy o'rta ta'limga muassasalari direktori, pedagog kadrlari, o'quvchilarining ota-onalari, malakali mutaxassislar va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman kesimida yillik dasturni ishlab chiqish, ularni keng muhokama qilish uchun Internet va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida yoritish.</p> <p>2. Muhokama doirasida kelib tushgan takliflardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashida taqdimotini o'tkazish.</p> <p>3. Yangihayot tumani dasturlarni tasdiqlash va Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini tizimini isloh qilish bo'yicha tuman Milliy kengashiga kiritish.</p> <p>4. Dastur ijrosi bo'yicha hisobotni hamda Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini tizimini isloh qilish bo'yicha taklif va tashabbuslarni tegishliligi bo'yicha kiritish.</p>	<p>2022-yil 20 fevral</p> <p>2022-yil 1 mart</p> <p>2022-yil 5 mart</p> <p>har oyning 20 sanasiga qadar</p>	Tuman hokimining o'rribosari (M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta'limi (Sh.Tadjiyev), tuman hokimligi matbuot xizmati
----	---	--	---	--

<p>3.</p>	<p>Tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalarini malakali rahbar kadrlar bilan ta'minlash</p>	<p>.1. Tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalariga malakali rahbar kadrlarni jalg qilish, ularning malakasini doimiy oshirish hamda bilimlarini baholab borish tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Bunda: tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalarini rahbar kadrlarining bilim va ko'nikmalarini baholash; baholash natijalaridan kelib chiqib tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalarini rahbar kadrlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish; tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalariga malakali rahbar kadrlarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislarini jalg qilishni nazarda tutish. 2. Tuman Maktabgacha va maktab ta'lismi bo'limi va umumiyo'rta ta'lismi muassasalarining rahbar kadrlarini mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qo'shimcha rag'batlantirish tizimini yaratish.</p>	<p>2022-yil 1-aprel</p> <p>2022-yil 1-sentyabr</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'lismi (Sh.Tadjiyev), maktab direktorlari</p>
-----------	---	--	--	--

II. Maktablarning moddiy-texnika bazasini va infratuzilmasini mustahkamlash

<p>4.</p>	<p>Umumiyo'rta ta'lismi muassasalarining moddiy-texnika bazasini va infratuzilmasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</p>	<p>1. Tumandagi umumiyo'rta ta'lismi muassasalarining moddiy texnika bazasini, jihozlanishini va infratuzilmasini tahlil qilish. 2. Ta'mortalab, infratuzilmasi nochor bo'lgan umumiyo'rta ta'lismi muassasalarini aniqlash. 3. Mahalliy byudjet mablag'lari ni ta'mortalab, infratuzilmasi nochor bo'lgan umumiyo'rta ta'lismi muassasalariga yo'naltirish.</p>	<p>2022-yil 15-fevral</p> <p>2022-yil 1-mart</p> <p>2022-yil iyuldan boshlab</p>	<p>Tuman hokimining o'rinnbosarlari (X.Toshpulatov, M.Kamilov), Moliya bo'limi (A.Mahmudov), Maktabgacha va maktab ta'lismi (Sh.Tadjiyev),</p>
-----------	--	--	--	--

5.	Umumiy o‘rtalim muassasalarida qurilish-ta’mirlash ishlarini samarali tashkil etish.	<p>1. Maktablarni qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash ishlarini tashkil etish.</p> <p>Bunda, maktablarning yangi binolarini qurish va ularni bevosita mahalla faollari, otanonalar va jamoatchilik nazorati ostida foydalanishga qabul qilish mexanizmini joriy etish.</p> <p>2. Umumiy o‘rtalim muassasalarining laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanganlik holatini va hojatxonalar sanitariya-gigiyena talablariga javob berishini o‘rganish.</p> <p>3. Umumiy o‘rtalim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash hamda jihozlashga xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb qilish.</p>	<p>2022 yil avgustdan boshlab</p> <p>2022-yil 1-mart</p> <p>2022-yil 1-noyabr</p>	<p>Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta’limi (Sh.Tadjiyev)</p>
6.	«Namunaviy maktab» loyihamonlari ishlab chiqish.	<p>«Namunaviy maktab» loyihamonlari ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <p>maktablarning yer maydoni va binolaridan samarali foydalanish; qo’shimcha binolarni barpo etish orqali maktablarning quvvatlarni oshirish;</p> <p>maktablarning binolari, inshootlari, sinf xonalari va jihozlarining (parta, doska, laboratoriya jihozlari) foydalanish uchun qulayligini ta’minalash;</p> <p>maktablarga quyosh paneli va issiq suv kollektori o‘rnatishga e’tibor qaratishni nazarda tutish.</p>	<p>2022-yil 1-mart</p>	<p>Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi (J.Arashov), Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta’limi (Sh.Tadjiyev)</p>
7.	Tumandagi maktablar infratuzilmasini yaxshilash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish.	<p>Tumandagi maktablar infratuzilmasini yaxshilash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, dasturlarni ishlab chiqish uchun finlyandiyalik mutaxassislarni jalb etish.</p>	<p>2022-yil 15-mart</p>	<p>Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, M.Kamilov, A.Nurmatov), Maktabgacha va maktab ta’limi (Sh.Tadjiyev)</p>

8.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga taklif kiritilsin.	<p>1. Jahon banki, UNICEF, Osiyo taraqqiyoti banki kabi nufuzli tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlikda Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasini (National Compact) ishlab chiqishga taklif kiritish.</p> <p>2. Strategiyani (National Compact) maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga joriy etib borish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri buyrug'i bilan belgilanishiga taklif kiritish.</p>	<p>2023-yil iyun</p> <p>2023/2024 o'quv yilidan boshlab har yili sentabr oyidan</p>	Tuman hokimining o'rribosari (M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta'limi (Sh.Tadjiyev)
----	--	---	---	---

III. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va pedagoglar salohiyatini oshirish

9.	Xalqaro tajribani inobatga olgan holda fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishga ko'maklashish	.1. Chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. Bunda, chora-tadbirlar dasturida quyidagilarni nazarda tutish: o'qituvchilar uchun zamonaviy metodik qo'llanmalar yaratish; o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, xususiy xulosalardan umumiy xulosalar chiqarish va umumiy xulosalarni xususiy hollarga tatbiq qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan medieresurslar yaratish; aniq va tabiiy fanlarni amaliyot bilan bog'lash; malakali xorijiy mutaxassislarni umumta'lim maktablarida dars berishga jalb qilish.	<p>2022-yil 1-iyun</p>	Tuman hokimining o'rribosari (M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta'limi (Sh.Tadjiyev) maktab direktorlari
10.	Maktab o'qituvchilariga metodik yordam beruvchi mobil metodik guruhlarni tashkil etish choralar ko'rish.	<p>1.Toshkent shahrida yetakchi oliy ta'lim muassasasi huzurida professor-o'qituvchilar, akademik litsey hamda umumta'lim maktablarining malakali va tajribali o'qituvchilaridan tashkil topgan mobil metodik guruhlarni tashkil etish.</p> <p>2.Har oyda mobil metodik guruhlar tomonidan Yangihayot tumanidagi kamida ikkitadan ta'lim sifati past, muhiti og'ir bo'lgan maktablarga borib, pedagoglarga ilg'or o'qitish metodikalari va innovatsiyalarga o'rgatish tizimini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2022-yil 1-mart</p> <p>2022-yil 1-apreldan boshlab</p>	Tuman hokimining o'rribosari (M.Kamilov), Maktabgacha va maktab ta'limi (Sh.Tadjiyev)

IV. Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish va o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

11.	Maktablarda besh tashabbus doirasida to'garaklar tashkil etish	<p>.1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida sport va jismoniy tarbiyani yanada rivojlantirishga doir takliflar kiritish. Bunda: bolalar va o'smirlar sport maktablari metodistlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim mакtablarining jismoniy tarbiya o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatish;</p> <p>har bir maktabda futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o'yin turlari bo'yicha jamoalar tuzish hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o'rtasida musobaqalar o'tkazish;</p> <p>sport musobaqalari bo'yicha tuman va viloyat bosqichi g'oliblari uchun hokim sovrinini ta'sis etish;</p> <p>maktablarning joylashgan joyi hamda o'quvchilarning qiziqishlariga qarab baxshichilik, maqom, estrada, teatr, rassomchilik yo'nalishlarida to'garaklar va badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish.</p> <p>.2. Maktablarning joylashgan joyi hamda o'quvchilarning qiziqishlariga qarab baxshichilik, maqom, estrada, teatr, rassomchilik yo'nalishlarida to'garaklar va badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish.</p>	2022-yil 1-mart 2022-yil 1-aprel	Tuman hokimining o'rribosari (M.Kamilov), Maktabgacha va mакtab ta'limi (Sh.Tadjiyev), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (I.Jodiqov)
12.	Maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.	<p>1. 2022 yilga mo'ljallangan maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish.</p> <p>2. Maktab o'quvchilari uchun poligonlarda harbiy dala mashg'ulotlarini o'tkazish hamda ularni chavandozlar maktabiga jalg qilish bo'yicha choratadbirlar rejasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Ijtimoiy-ma'naviy muhiti sog'lom bo'lmagan, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga harbiy ta'lim muassasalari, «Temurbeklar maktablari», harbiy qism ofitser va serjantlarini yakka tartibda biriktirish.</p>	2022-yil 1-mart	Tuman Mudofaa ishlari bo'limi (I.Nishanov), Maktabgacha va mакtab ta'limi (Sh.Tadjiyev),